

Fargʻona davlat texnika universitetining bilan huquqni muhofaza qilish organlarining oʻzaro hamkorligi toʻgʻrisidagi

TARTIBI

Mazkur tartib Fargʻona davlat texnika universiteti bilan huquqni muhofaza qilish organlari oʻrtasida sohaga oid belgilangan vazifalarni bajarish jarayonidagi oʻzaro hamkorlik qilish tartibini belgilaydi.

I-bob. Umumiy qoidalar

1.1. Fargʻona davlat texnika universiteti yashirin iktisodiyot va korrupsiyaga karshi kurashish borasida belgilangan vazifalarni huquqni muhofaza qilish organlari bilan oʻzaro hamkorlikda amalga oshiradi.

1.2. Mazkur Tartibda quyidagi asosiy tushunchalar qoʻllaniladi:

huquqni muhofaza qilish organlari-**viloyat Bosh** prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar boshqarmasi va boshqalar.

oʻzaro hamkorlik – Fargʻona davlat texnika universiteti bilan xukukni muxofaza qilish organlarining uz vakolatlari doirasidagi xamkorligi;

tezkor-oʻrganish tadbirlari - oʻrganishlar, huquqbuzarliklarni aniqlash hamda toʻplangan hujjatlarni oshkoralashtirish.

Oʻzaro hamkorlikni amalga oshirishda tomonlar normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan oʻz vakolatlari doirasida harakat qiladi.

1.3. Oʻzaro hamkorlik quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- a) axborot almashish;
- b) iqtisodiy qonunbuzilishlar va korrupsiyaga oid qonunchilik talablari buzilganligi haqidagi maʼlumotlarni choralar kurish uchun taqdim etish;
- v) hamkorlikdagi tezkor tadbirlar;
- g) jinoyat ishlari doirasida oʻrganishlarni amalga oshirish;
- d) hamkorlikda tahliliy materiallarni tayyorlash.

II-bob. Axborot almashish

2.1. Fargʻona davlat texnika universiteti bilan huquqni muhofaza qilish organlari oʻrtasidagi maʼlumotlar almanishuvi tomonlarning asoslantirilgan yozma soʻroviga koʻra amalga oshiriladi.

2.2. Davlat sirini tashkil etuvchi maʼlumotlar Oʻzbekistan Respublikasining “Davlat sirlarini saqlash toʻgʻrisida”gi Qonuni, bank sirini tashkil etuvchi maʼlumotlar “Bank siri toʻgʻrisida”gi Qonun, soliq sirini tashkil etuvchi maʼlumotlar Oʻzbekistan Respublikasining Soliq kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etiladi.

III-bob. Iqtisodiy va korrupsiyaga oid qonunlik talablari buzilganligi haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish.

3.1. Universitetda iqtisodiy va korrupsiyaga oid qonunlik talablari buzilganligi haqidagi ma'lumotlar belgilangan tartibda chora ko'rish uchun taaluqligi bo'yicha huquqni muhofaza qilish organlariga taqdim qilinadi.

3.2 Huquqni muhofaza qilish organlariga materiallarni yuborishda quyidagi ilovalar taqdim qilinishi lozim:

o'rganishni amalga oshirishga asos hisoblangan farmoyish, buyruk, ish rejasi va boshqalar;

o'rganishni amalga oshirishga asos hisoblangan hujjatlar bilan tanishish yoki ularni qabul qilish rad etilgan hollarda O'zbekistan Respublikasi Qonunlariga muvofiq tegishli tartibda rasmiylashtirilgan dalolatnoma;

O'zbekistan Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq, rasmiylashtirilgan o'rganish dalolatnomasi, o'rganish doirasida sodir etilgan harakatlar bo'yicha tuzilgan bayonnoma, o'rganish davomida olingan materiallar va boshqa hujjatlar;

o'rganish dalolatnomasi bilan tanishuvdan yoki uni olishdan bosh tortilgan hollarda ushbu dalolatnomaning bir nusxasi pochta orqali yuborilganligini tasdiqlovchi buyurtma xat;

o'rganish dalolatnomasida ko'rsatilgan qonun buzilishlar bo'yicha o'rganish sub'ekting tushuntirish xatlari yoki yozma shakldagi e'tirozlari; aniqlangan qonunbuzilishlar aks ettirilgan qisqartirilgan xulosa; sub'ekt tomonidan o'rganish o'tkazishga to'sqinlik qilinganda, tekshirish o'tkazish uchun asos bo'luvchi hujjatlarni olishdan va tilxat berishdan bosh tortilganda tuziladigan dalolatnoma;

sub'ektdan mavzuli o'rganish predmetiga taalluqli bo'lgan hujjatlardan nusxalar olinganligi to'g'risida bayonnoma;

o'rganishga jalb qilingan mutaxassislar tomonidan berilgan xulosa; sub'ektning o'rganish natijasidan noroziligi to'g'risida yozma ravishda tushuntirishlari va e'tirozlari.

3.3. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tegishli universitetdan tekshirish tadbirlari bilan bog'liq hujjatlarni, shu jumladan boshqa tekshirish materiallarini rasmiy so'rov asosida talab qilib olishi mumkin.

3.4. Universitet huquqni muhofaza qiluvchi organlarning so'roviga asosan avval yuborilgan ma'lumotlarni taqdim etadi.

Materiallar huquqni muhofaza qiluvchi organlari rahbari (o'rinbosari)ga imzolangan xat asosida yuboriladi.

3.5. Universitetga tekshirish dalolatnomasi kelib tushgan sanadan boshlab, qonunda belgilangan muddatlardan kechiktirmay ko'rib chiqadi va natijasi bo'yicha qabul qilingan qaror nusxasini dalolatnomani yuborgan organga o'sha kunning o'zida taqdim etadi.

Boshqa materiallar bo'yicha ko'rilgan choralar yoki qaror qabul qilingan kundan boshlab, o'n kun muddatda ko'rib chiqish natijalari haqida xabar yuboriladi.

3.6. Universitet huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan yuborilgan materiallar bo'yicha nazorat choralarini quyidagilarga asosan rad etishi mumkin:

taqdim etilgan materiallarda qonunbuzilishi to'g'risidagi faktlar mavjud emasligi;

tizim tekshiruviga, o'rganishga to'sqinlik qiluvchi holatlar mavjudligi, shu jumladan huquqbuzarlikning da'vo muddati o'tganligi.

IV-606. Hamkorlikda tezkor-tadbirlarini o'tkazish

4.1. Farg'ona davlat texnika universitetidagi nazorat tadbirlarini zarurat bo'lganda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiradilar:

a) prokuratura organlari va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan qonunchilikda belgilangan hollarda;

Farg'ona davlat texnika universitetida yashirin iktisodiyot va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash hamda ty'plangan materiallarni oshkoralashtirishda;

b) ichki ishlar organlari bilan o'rganish tadbirlari davomida xodimlarning qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilinganida yoki ularning xizmat vazifalarini bajarishida ularning hayoti va sog'ligini muhofaza qilishda;

v) qonunchilikda belgilangan holatlarga muvofiq boshqa yo'nalishlarda.

4.2. Universitet mazkur badda ko'rsatilmagan yo'nalishlar bo'yicha ham nazorat tadbirlariga yuqorida ko'rsatib o'tilgan organlarni jalb etish uchun ularga so'rov yuborishi mumkin.

4.3. O'zaro hamkorlik xodimlar tomonidan o'z vakolatlari doirasida tezkor-o'rganish tadbirlarini o'tkazishning vosita hamda usullarini tanlashda ularning mustaqilligiga to'sqinlik qilmaydi.

4.4. O'zaro hamkorlikda o'tkaziladigan tadbirlar bo'yicha tuzilgan o'rganish guruhi faoliyatini muvofiqlashtirish va tadbirlar natijasi bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirish guruh rahbari tomonidan amalga oshiriladi.

4.5. Tezkor-o'rganish tadbirlari universitetning buyrug'i yoki huquqni muhofaza qiluvchi organining buyrug'iga asosan o'tkaziladi.

Universitet xodimlari tezkor-o'rganish tadbirlariga ushbu tadbirlarni amalga oshiruvchi organning so'roviga asosan jalb etiladi.

4.6. Tezkor-o'rganish tadbirlari natijalarini rasmiylashtirish, shuningdek, ular bo'yicha qaror qabul qilish mazkur Tartib, O'zbekistan Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

V-606. Jinoyat ishlari bo'yicha o'rganishlarni amalga oshirish.

5.1. Jinoyat ishi doirasida o'rganish o'tkazish zarurati paydo bo'lgan taqdirda huquqni muhofaza qiluvchi organ o'rganish maqsadi va muddati hamda zarur bo'lgan xodimlar soni ko'rsatilgan qarorni Farg'ona davlat texnika universitetiga yuboradi.

5.2. Ushbu xatga asosan Farg'ona davlat texnika universiteti xodimlari tekshiruvda (taftishda) ishtirok etish uchun so'rov yuborgan organga o'ttiz kalendar kundan oshmagan muddatga xizmat safariga yuboriladi.

VI-bob. Hamkorlikdagi tahliliy materiallarni tayyorlash va qo'shma monitoring o'tkazish.

6.1. Hamkorlikdagi tahliliy materiallarni tayyorlash sohasida hamkorlik tegishli organlarning o'zaro manfaatlariga taalluqli bo'lgan masalalar bo'yicha amalga oshiriladi.

6.2. Tahliliy materiallarni tayyorlashda tashabbuskor tomon tegishli organga

zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish hamda hamkorlikda ishlash uchun tegishli mutaxassislarni yuborish haqida so'rov yuboradi.

VII-606. Yakuniy qoidalar

7.1. Ushbu Tartib talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.